



**JIZZAX VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**JIZZAX  
VILOYATIDA  
QURILISH ISHLARI**

**2022- YIL  
YANVAR-OKTABR**





# JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida, Jizzax viloyatida jami **2811,5** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **105,7 %** ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.



# 2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, birlikda



Yillar kesimida soni



Hududlar kesimida



1138

Bino va inshootlar qurilishi

446

Fuqarolik obyektlarini qurilishi

566

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2021- yil bilan solishtirganda o'sish sur'ati 99,5 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 53,0 foiz ulushi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 20,7 foiz ulushi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 26,3 foiz ulushni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga :		o'tgan yilga nisbatan, % da
	01.11.2021- y.	01.11.2022- y.	
Jizzax viloyati	2160	2150	99,5
Jizzax sh.	931	900	96,7
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	63	54	85,7
Baxmal	72	68	94,4
G'allaorol	142	162	114,1
Sh. Rashidov	365	353	96,7
Do'stlik	70	71	101,4
Zomin	132	137	103,8
Zarbdor	106	114	107,5
Zafarobod	27	31	103,7
Mirzacho'l	54	56	114,8
Paxtakor	85	87	102,4
Forish	74	79	106,8
Yangiobod	39	38	97,4



# 2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Jizzax sh. (41,9)



Sh.Rashidov (16,4)



G'allaorol (7,5)





## Qurilish ishlari 2022- yil yanvar-oktabr uchun

	Qurilish ishlari, mln. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Jizzax viloyati	2811517,7	135686,1	2063723,0	612108,6
Jizzax sh.	1065421,1	53047,4	909368,7	103005,0
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	44427,7		21804,0	22623,7
Baxmal	99705,9		42281,9	57424,0
G'allaorol	176746,1	8189,5	103547,7	65008,9
Sh. Rashidov	495684,0		421961,2	73722,8
Do'stlik	67349,3		42395,1	24954,2
Zomin	280419,2	60259,4	170947,8	49212,0
Zarbdor	127066,4	6097,5	77431,6	43537,3
Zafarobod	50939,1	844,7	24353,2	25741,2
Mirzacho'l	67953,1	7247,6	32723,7	27981,8
Paxtakor	157117,2		114241,6	42875,6
Forish	132604,5		77149,8	55454,7
Yangiobod	46084,1		25516,7	20567,4

\* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




2022- yilning yanvar-oktabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 135686,1 mln. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilga nisbatan 105,2 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yildagi ko'rsatkich darajasidan 0,1 % punktga kamayib, 4,8 % ni tashkil etdi.

# Qurilish ishlari 2022- yil yanvar-oktabr uchun




**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta‘mirlash, kapital ta‘mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.





## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



**MA'LUMOT UCHUN:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Zomin tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 2,1 %) ga to'g'ri keldi.



# Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2022- yilning yanvar-oktabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 73,4 % i to'g'ri kelib, 2021- yil ko'rsatkichiga nisbatan 0,3 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilga nisbatan 106,8 % ni tashkil etgan holda 2063723,0 mln. so'm miqdorida qayd etildi.

## Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



73,4

2022- yil  
yanvar-oktabr

73,7

2021- yil  
yanvar-oktabr




**MA'LUMOT UCHUN:** joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Jizzax shahri (909368,7 mln. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 44,1 %), Sh.Rashidov tumani (421961,2 mln. so'm yoki 20,4 %), Zomin tumani (170947,8 mln. so'm yoki 8,3 %)ga to'g'ri keldi.



## Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **21,8 %** ni tashkil etdi yoki **612108,6** mln. so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yilga nisbatan **101,8 %** ni tashkil etdi.



### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **28832,9** mln. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2782684,8** mln. so'm qurilish ishlari bajarildi.


2021- yil yanvar-oktabr



2022- yil yanvar-oktabr




# Davlat mulkchilik shakli bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 2022- yil yanvar-oktabr oylarida





# Nodavlat mulkchilik shakli bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 2022- yil yanvar-oktabr oylarida



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,  
rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi  
2022- yil yanvar-oktabr oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **83,1 %** i yoki **2335413,3** mln. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**5,4 %**

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **125911,3** mln. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **5,4 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **1655046,9** mln. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **70,9 %** ni tashkil etdi.

**70,9%**

**23,7 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **554455,1** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **23,7 %** ni tashkil etdi.



# Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-oktabr oylarida

	Qurilish ishlari, mln. so'm	O'sish sur'ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish
Jizzax viloyati	2811517,7	105,7	2335413,3
Jizzax sh.	1065421,1	101,4	885001,9
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	44427,7	102,8	36904,3
Baxmal	99705,9	107,5	82821,6
G'allaorol	176746,1	103,9	146815,8
Sh. Rashidov	495684,0	109,8	411744,5
Do'stlik	67349,3	102,3	55944,3
Zomin	280419,2	119,8	232932,8
Zarbdor	127066,4	105,0	105548,9
Zafarobod	50939,1	98,8	42313,0
Mirzacho'l	67953,1	101,0	56445,9
Paxtakor	157117,2	113,2	130510,9
Forish	132604,5	103,8	110149,2
Yangiobod	46084,1	100,6	38280,2


*\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda*



**Ma'lumot uchun:** Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.



# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 2,2 % ni tashkil etib, 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 22,4 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 23,1 % punktga ko'paydi, 71,1 % ni tashkil etdi.


Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,7 % punktga kamaydi, 26,7 % ni tashkil etdi.




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 23,6 % ni tashkil etdi va 2021- yilga nisbatan 7,6 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 75,8 % (7,1 % punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,6 % ni tashkil etdi (0,5 % punktga ko'paydi).

## ulushi % da



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilga nisbatan 24,4 % punktga kamaydi va 3,5 % ni tashkil etdi. Qolgan 96,5 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilga nisbatan 24,4 % punktga ko'paydi.





# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-oktabr

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurilishi	Fuqarolik obyektlarini qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
<b>Jizzax viloyati</b>	2811517,7	2283216,1	336726,9	191574,7
<b>Jizzax sh.</b>	1065421,1	865221,9	127602,2	72597,0
<b>tumanlar:</b>				
Arnasoy	44427,7	36079,5	5321,0	3027,2
Baxmal	99705,9	80970,5	11941,5	6793,9
G'allaorol	176746,1	143534,5	21168,3	12043,3
Sh. Rashidov	495684,0	402541,9	59366,6	33775,5
Do'stlik	67349,3	54693,9	8066,2	4589,2
Zomin	280419,2	227726,7	33585,0	19107,5
Zarbdor	127066,4	103189,8	15218,4	8658,2
Zafarobod	50939,1	41367,3	6100,8	3471,0
Mirzacho'l	67953,1	55184,3	8138,5	4630,3
Paxtakor	157117,2	127593,9	18817,4	10705,9
Forish	132604,5	107687,3	15881,6	9035,6
Yangiobod	46084,1	37424,6	5519,4	3140,1

*\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda*



*Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi*

*Aloqa telefoni: (72) 221-53-73*